



O'ZBEKISTON ISHCHI KUCHI BOZORIDA TAKLIF VA UNING DINAMIKASIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI

Ganiyev Baxtiyor Zulfiqor o'g'li -
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
tayanch doktoranti

https://doi.org/10.55439/ECED/vol23_iss6/a32

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonda ishchi kuchi bozorida taklif, undagi dinamik o'zgarishlar va ushbu tebranishlarga sabab bo'layotgan ayrim omillar ta'siri yoritilgan. Shuningdek, asosiy bog'liq o'zgaruvchi umumiy iqtisodiy faol ishchi kuchi jins kategoriyasiga ajratilgan holda o'rganilgan. Olingan natijalarga ko'ra, aholi jon boshiga real daromadlar hamda urbanizatsiya darajasi teskari va ajrimlar hamda nikohlar soni to'g'ri ta'sirni ko'rsatdi. Yakuniy natijalarga asosan muayyan xulosalar va bir nechta tavsiyalar keltirib o'tilgan.

Tayanch so'zlar: ishchi kuchi taklifi, umumiy, erkak va ayol iqtisodiy faol ishchi kuchi, aholi jon boshiga real daromad, urbanizatsiya, ajrimlar soni, nikohlar soni.

АНАЛИЗ ПРЕДЛОЖЕНИЯ И ФАКТОРОВ, ВЛИЯЮЩИХ НА ЕГО ДИНАМИКУ НА РЫНКЕ ТРУДА УЗБЕКИСТАНА

Ганиев Бахтиёр Зулфиқор ўғли -
Докторант Ташкентский государственный
экономический университет

Аннотация. В данной статье описаны предложение, динамические изменения на рынке труда в Узбекистане, а также влияние некоторых факторов, вызывающих эти колебания. Также была изучена основная зависимая переменная путем деления всей экономически активной рабочей силы на гендерную категорию. Согласно полученным результатам, реальный доход на душу населения и уровень урбанизации показали обратное влияние, а количество разводов и браков – правильное. По итоговым результатам даются определенные выводы и несколько рекомендаций.

Ключевые слова: предложение рабочей силы, общая мужская и женская экономически активная рабочая сила, реальный доход на душу населения, урбанизация, количество разводов, количество браков.

ANALYSIS OF SUPPLY AND FACTORS INFLUENCING ITS DYNAMICS IN THE LABOR MARKET OF UZBEKISTAN

Ganiyev Baxtiyor Zulfiqor ugli -
Tashkent State University of Economics
doctoral student

Abstract. This article describes the supply, dynamic changes in the labor market in Uzbekistan, and the influence of some factors that cause these fluctuations. Also, the main dependent variable the total economically active labor force was studied by dividing into the gender category. According to the obtained results, real income per capita and level of urbanization had an negative effect, and the number of divorces and marriages showed the positive effect. Based on the final results, certain conclusions and a number of recommendations are given.

Key words: labor supply, total, male and female economically active labor force, real income per capita, urbanization, number of divorces, number of marriages.

Kirish. Mazkur maqolada biz mamlakatimizda ishchi kuchi bozorida taklif tomonining bugungi kundagi holati qanday omillar ta'sirida o'zgarayotganligini tahlil etamiz. Iqtisodiyot tarixidan bizga ma'lumki, ishchi kuchi taklifi hamda unga ta'sir omillar xususida turli xil iqtisodiy maktab vakillari turlicha qarashlarga ega bo'lishgan. Jumladan, klassik iqtisodiy maktab olimlari ishchi kuchi taklifiga ta'sir etuvchi eng asosiy determinant – bu real ish haqi deb hisoblashgan. Keynschilik maktabi iqtisodchilari esa, ishchi kuchi taklifi hajmini belgilab beruvchi omil sifatida nominal ish haqini ko'rsatishadi. Monetarizm iqtisodiy maktab namoyondalari kutilmaviy ish haqini ishchi kuchini taklifining funksiyasi sifatida qarashadi. Unga ko'ra insonlar mehnat va

dam olish o'rtasidagi tanlovni kutulmaviy ish haqiga ko'ra amalga oshiradi. Bilamizki, umumiy holatda iqtisodiyot tarmoqlarida band bo'lganlar hamda ishsiz insonlar ishchi kuchini tashkil qiladi.

Iqtisodchi olimlar tomonidan ishchi kuchi taklifining o'zgarishiga ta'sir etuvchi turli xil omillarni tahlil etishgan. Unga ko'ra bog'liq o'zgaruvchi sifatida ishchi kuchi taklifi, ishchi kuchi taklifining ish bilan ta'minlangan qismi, ishchi kuchining ish bilan ta'minlanmagan qismi (ishsizlar soni), iqtisodiy faol ishchi kuchi resurslari, ishchi kuchi taklifining ayollar yoki erkaklar qismi, yosh kategoriyasi bo'yicha ishchi kuchi taklifi, ma'lumotlilik darajasiga ko'ra ishchi kuchi taklifi va hududlar kesimida ishchi kuchi taklifi kabilar olinganini kuzatish mumkin.

Mustaqil o'zgaruvchi sifatida esa, ish haqi, aholi jon boshiga daromadlar, oilaviy ajrimlar va farzandlar soni kabi faktorlar tanlab olinganini guvohi bo'lish mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ishchi kuchi bozorida taklif va uning hajmiga ta'sir etuvchi omillarni tadqiq etish iqtisodiy tahlillarda doimiy dolzarblik kasb etadi. Xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan ushbu yo'nalishda ko'plab o'z tadqiqotlarini olib borishgan. Quyida bir qancha omillarni ishchi kuchi taklifi bilan o'zaro bog'liqligi yuzasidan fikr va mulohazalarga to'xtalib o'tamiz.

Gül, H.I. ning fikricha ishchi kuchi taklifi o'zining evolutsiyasida hozirgi kungacha amalda sezilarli o'zgarishlarga uchradi. Ishchi kuchi taklifi nafaqat iqtisodiy nazariyalardagi rivojlanishini davom ettirdi, balki jamiyatlarda undan foydalanish usullarini ham o'zgartirdi. Bundan buyon ishchi kuchi taklifi tushunchasi turli ma'nolarda, turli foydalanishlarda va turli sohalarda o'z xususiyatlarini o'zgartirib boradi[1].

B.E. Mamaraximov ishchi kuchi taklifiga "ishchi kuchi taklifi – bu muayyan vaqtda ish haqining tarkib topgan darajasida ishga yollanishga tayyor bo'lgan mehnatga layoqatli ishchi kuchi miqdori" deya ta'rif beradi. Ishchi kuchi taklifi mehnat qilish yoshidagi turli kasb va mutaxassislikka ega bo'lgan kishilarning ishlashga bo'lgan layoqatini namoyon etadi[2].

Sh.R. Xolmo'minovning ta'kidlashicha, respublika mehnat bozorida ishchi kuchi taklifining o'sishi ko'p jihatdan aholining iqtisodiy faol qismi holati bilan belgilanadi. U esa mazkur bozordagi raqobatga ham ko'p jihatdan bog'liq[3].

Abulqosimov H.P va Ashurova M.X larning ta'riflashicha ishchi kuchi – bu insonning mehnat qilishga qaratilgan jismoniy va aqliy qobiliyatlari yig'indisidir. Bu qobiliyatlarning har bir sohibi mehnatga layoqatli kishidir. Mazkur qobiliyatning amalida qo'llanilishi mehnat yuz berganini bildiradi[4].

G.K. Abdurahmonova ishchi kuchi taklifiga mehnat bozorining unsurlaridan biri sifatida qarab, quyidagicha ta'rif beradi: "mehnat (ish kuchi) taklifi — ish haqi hisobiga taklif etiladigan mehnat (ish kuchi) xizmati hajmi sanaladi" [5].

Xalqaro Mehnat Tashkiloti (ILO) ning 2017 yilda chop etilgan "Ishchi kuchi hajmini aniqlash va bashoratlash: 1990-2030" nomli metodologik izohiga ko'ra ishchi kuchi taklifiga ta'sir etuvchi umillarni quyidagicha guruhlarga ajratiladi:

- Strukturaviy yoki uzoq muddatli omillar (moslashuvchan ish vaqti, soliqqa tortish, pensiya tizimi, ishsizlik nafaqasi, eng kam oylik ish haqi)

- Siklli omillar (ishchi kuchiga talab, *Inqiroz holatida*: "tushkunlikka tushgan ishchi kuchi samarasini" (discouraged worker effect), "qo'shimcha ishchi kuchi samarasini" (additional worker effect))

- Tasodifiy omillar (urushlar, tabiiy ofatlar)

- Boshqa omillar (demografik omillar, madaniy omillar, savodxonlik darajasi, texnologik rivojlantirish, transport tizimi) [6].

Ishchi kuchi taklifi uning jinsi orqali ham tasniflanishini barchamiz yaxshi bilamiz. Ammo, ishchi kuchining jinsi orqali kategoriyalagan holda tahlil qilsak, ularning iqtisodiyotda ishtiroki turli davlatlarda turlicha hisoblanadi. Bunga sabab qilib davlatlar tanlagan rivojlanish yo'li, dini, etnik kelib chiqishi, ichki va tashqi siyosat hamda institutlar kabi omillarni keltirish mumkin.


Emerson ishchi kuchi taklifini jins kategoriyasiga bo'lgan holda AQSH ishchi kuchi bozorini tadqiq etadi. Qiziqarlisi shundaki, qamrab olingan muddat oralig'ida erkaklar uchun ishchi kuchining iqtisodiyotda qatnashish darajasi (LFPR) ayollarnikidan farqli ravishda pasayish darajasiga ega bo'lgan. "biz tadqiqotimiz orqali AQSHda "demotivatsiyalangan ishchi" samarasini aniqladik", deydi Emerson [7].

Buhari Dogan ayol ishchi kuchi taklifining iqtisodiyotda qatnashish darajasi (FLPR)ni Turkiya davlati misolida tahlil qilar ekan, birinchi bosqichda iqtisodiy o'sish va ayol ishchi kuchlarining iqtisodiyotda qatnashish darajasi o'rtasida ijobiy bog'liqlikni va aksincha keyingi bosqichda salbiy korrelyatsiyani ko'rsatib beradi va uning grafik shaklini "U" shaklida bo'lishini aytadi[8].

Katrina Kosec, Jie Song, Hongdi Zhao va Brian Holtemeyerlarning ta'kidlashicha, ishchi kuchi taklifi – muayyan vaqt oralig'ida aholining mehnatga layoqatli bo'lgan qismining haq evaziga mehnat qilishga bo'lgan xohishi. Mualliflar ishchi kuchi taklifini tadqiq etar ekan, ishchi kuchi faolligiga daromaddagi o'zgarishning ta'sirini o'rganadi. Daromaddagi o'zgarishlar erkaklarga qaraganda ayollarning iqtisodiy faolligiga kamroq ta'sir etadi[9].

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada bir qancha iqtisodchilarning ishchi kuchi taklifi ba O'zbekistonda undagi dinamik o'zgarishlarga sabab bo'layotgan omillar tahlil etilgan. Shuningdek, tahlil modeli uchun zarur statistik ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasi hamda Jahon Banki rasmiy saytlaridan olindi. Muammoni o'rganish mobaynida mantiqiylik va tarixiylikning birligi, ilmiy abstraksiya, deduksiya kabi ilmiy bilish usullaridan hamda SEM + PATH ekonometrik modelidan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun yillar davomida ishchi kuchi bozorida taklif tomonining talab tomoni bilan mutanosibli bo'yicha ziddiyatli holat bo'lib kelmoqda. Buning eng asosiy sabablaridan biri esa, mamlakatimiz aholisining o'sish surati bilan bog'liq hisoblanadi. Shuningdek, ishchi kuchi taklifi va undagi dinamik o'zgarishlarga ta'sir etuvchi omillar ajrimlar va nikohlar soni kabi ijtimoiy xususiyatga ega bo'lishi ham mumkin.



1-chizma. Modelda foydalanilgan mustaqil o'zgaruvchilarning o'zgarish dinamikasi (ming kishi)

Manba: www.stat.uz sayti ma'lumotlari asosida tayyorlandi.


Modelda mustaqil regressorlar sifatida *marrg* (tuzilgan nikohlar soni), *ms* (ajrimlar soni), *rincper* (aholi jon boshiga real daromadlar) va *urb* (Shaharlashish darajasi) olingan. Tanlab olingan mustaqil o'zgaruvchilarning 2000 va 2021-yillar oralig'idagi tebranishlari tahlil qilingan.

Modelda foydalanilgan omillarning o'zgarish dinamikasiga ko'ra, *qayd etilgan nikohlar soni* va *ajrimlar soni* da qolgan o'zgaruvchilardan ko'ra ko'proq tebranishlarni ko'rish mumkin. Nikohlar soni 2007 yilga kelib eng yuqori o'sishni ko'rsatgan bo'lsa, ajrimlar soni 2021-yilda o'tgan yilga nisbatan hisoblaganda eng ko'pni tashkil etgan. Ajrimlar soni birinchi dekadada ikkinchisiga nisbatan pastroq bo'lgan bo'lsa, qayd etilgan nikohlar soni esa aksin-

cha ikkinchi o'n yillikda birinchisiga nisbatan kamroqni tashkil etmoqda.

Aholi jon boshiga real daromadlar 2010-yilgacha unchalik ham o'zgarishlarga uchramagan bo'lsa, 2010 va 2020 yillar oralig'ida sezilarli darajada oshdi va eng yuqori natijani 2021-yilga kelib (2588,526) ko'rsatdi. Urbanizatsiya darajasida 2009-yilgi katta o'sishdan so'ng sezilarli o'zgarish kuzatilmagan bo'lsa-da, yildan-yilga o'sish tendensiyasiga ega.

Barcha erkin o'zgaruvchilardagi pandemiya sababli 2020-yildagi pasayishdan so'ng 2021-yilda qayta tiklangani hamda o'tgan yilga nisbatan sezilarli darajada oshganini guvohi bo'lishimiz mumkin.




2-chizma. Modelda foydalanilgan bog'liq o'zgaruvchilarning o'zgarish dinamikasi (ming kishi)

Manba: www.stat.uz sayti ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

Modelda bog'liq va oraliq bog'liq o'zgaruvchilar sifatida mos ravishda *tlfp* (umumiy iqtisodiy faol ishchi kuchi) va *flfp* (umumiy ayol iqtisodiy faol ishchi kuchi) hamda *mlfp* (umumiy erkak iqtisodiy faol ishchi kuchi) lar tanlab olingan.

2-chizma ma'lumotlari asosida aytish mumkinki, *mlfp* dagi o'tgan yilga nisbatan o'zgarish deyarli butun davr mobaynida *flfp* dan ko'ra ko'p-

roqni tashkil etgan. Umumiy ayol iqtisodiy faol ishchi kuchidagi o'zgarish 2007 yilda eng yuqori natija ko'rsatgan bo'lsa, 2018 yilga kelib umumiy erkak iqtisodiy faol ishchi kuchiga teskari natija ko'rsatgan (-310,3). 2020 yilda esa, COVID 19 sabab umumiy iqtisodiy faol ishchi kuchidagi o'zgarish keskin kamayib ketgan va -79 gacha pasaygan.



3-chizma. SEM+PATH modeli natijalarining chizmadagi ifodasi

Manba: stata14 dasturi yordamida muallif tomonidan tayyorlandi.

2-chizmaga ko'ra, unda modelimizning illustrativ ko'rinishi berilgan. *rincper* ning oraliq bog'liq o'zgaruvchilar: *flfp* va *mlfp* ga bevosita asosiy bog'liq

o'zgaruvchi *tlfp* ga bilvosita ta'siri tasvirlangan. *ms*, *urb* va *marrg* larning *mlfp* ga bilvosita *tlfp* ga bevosita ta'sir aks etgan.

1-jadval

Mustaqil o'zgaruvchilarning bog'liq o'zgaruvchilarga ta'sir shakllari

Mustaqil o'zgaruvchilar	FLFP		
	Bevosita ta'sir	Bilvosita ta'sir	Umumiy ta'sir
rincper	-.0002608**	-	-
	MLFP		
rincper	-.0004191*	-	-
urb	-.000963***	-	-
ms	.0002419**	-	-
marrg	.0000481***	-	-
	TLFP		
FLFP	.4272326***	-	.4272326***
MLFP	.5568584***	-	.5568584***
rincper	-	-.0003448***	-.0003448***
urb	-	-.0005363***	-.0005363***
ms	-	.0001347**	.0001347**
marrg	-	.0000268***	.0000268***

Manba: Stata14 dasturi yordamida muallif tomonidan tayyorlandi

*p<0.1, **p<0.05, ***p<0.01

3-jadval ma'lumotlari orqali oydinlashadiki, aholi jon boshiga real daromadning umumiy ayol hamda erkak iqtisodiy faol ishchi kuchiga bevosita umumiy iqtisodiy faol ishchi kuchiga bilvosita ta'siri statistik jihatdan ahamiyatli bo'lib, undagi bir birlik oshish *flfp*, *mlfp* va *tlfp* da kichik pasayishga sabab bo'lmoqda. Shuningdek, urbanizatsiya darajasi ham erkak iqtisodiy faol ishchi kuchiga bevosita ta'sir etib teskari bog'liqlik namoyish etgan. Nikohlar soni va ajrimlar soni *mlfp* bilan to'g'ri bog'liqlik ko'rsatgan

va erkak iqtisodiy faol ishchi kuchining oshishiga olib kelmoqda.

Barcha mustaqil hamda oraliq bog'liq o'zgaruvchilarning *tlfp* ga umumiy ta'siri statistik jihatdan ahamiyatli bo'lib, aholining jon boshiga real daromadlari va shaharlashish teskari, *ms*, *marrg*, *flfp* hamda *mlfp* lar to'g'ri bog'liqlik namoyish etgan. Umuman olganda *flfp* va *mlfp* *tlfp* ning mos ravishda 0.43 va 0.57 qismini ifodalab kelmoqda. Boshqacha aytganda ayol va erkak ishchi kuchining iqtisodiyotda faolligi o'rtasidagi sezilarli darajada mavjud ekanligini ko'rsatadi.

Modelning ishonchligini baholash

RMSEA	p>chi2	CFI>90	R kvadrat
0.019**	0.000***	0.918	0.69

Manba: Stata14 dasturi yordamida muallif tomonidan tayyorlandi

4-jadval ma'lumotlaridan anglash mumkinki, modelning ishonchligini baholovchi ko'rsatkichlar ham statistik jihatdan ahamiyatli natijalarni ko'rsatmoqda.

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, zamon va makondan qat'iy nazar ishchi kuchi bilan bog'liq masalalar iqtisodchilar diqqat markazida bo'lib kelgan. Muammo tadqiq etilar ekan omillar kutilgan emas balki, teskari natijani berishi mumkin. Bizning tahminimizga ko'ra, aholi jon boshiga real daromadlar oshishi ishchi kuchining iqtisodiy faolligiga ijobiy ta'sir etishi kerak edi. Ammo tahlillar natijasi teskari bog'liqlikni ko'rsatdi. Statik ishchi kuchi taklifiga ko'ra, yuqoridagi holatda insonlar daromad oshganligi sababli ishlashdan ko'ra ko'proq dam olishga vaqt sarflashi mumkin. Ikkinchi holatda esa, aholi jon boshiga real daromadlar iqtisodiy faol hamda nafaol ishchi kuchiga teng taqsimotni anglatadi. Shu sababli umumiy iqtisodiy

faollikda teskari effect kabi namoyon bo'lishi mumkin. Yana bir o'zgaruvchi – urbanizatsiya darajasining ta'siri ham aslida ijobiy bo'lishi kerak edi. Bunday natija olinmaganining sababini shaharlar haqiqiy o'z maqomi darajasida emas va infrastruktura darajasi ham yetarlicha rivojlanmagan. Ajrimlar hamda nikohlar soni ijobiy natijani berdi. Bu holat iqtisodiy jihatdan ijobiy va manfaatli bo'lishi mumkin ammo ijtimoiy jihatdan emas.

Yuqridagilardan xulosa yasagan holda quyidagilarni tavsiya o'rnida keltirish mumkin:

- hukumat tomonidan aholi jon boshiga real daromadlar va ishchi kuchi iqtisodiy faolligi o'rtasidagi nomutanosiblikning sabablariga e'tibor qaratish;
- hududlarda infratuzilmalarni yaxshilashga harakat qilish;
- ajrimlar soni oshirishning ijtimoiy oqibatlariga e'tibor qaratish.

Manba va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Gül, H.I (2022) *The Relationship of Labor, Capital, Balance and Benefit with The Evolution of The Labor Factor in Economic Thought, and Society's Conceptual-ization of Labor*. *Journal Of Economic and Business Issues*, 2(1), 01-13
2. Mamaraximov B.E (2020) "Ishchi kuchi bozorida mutanosiblikni ta'minlashning nazariy asoslari" https://scholar.google.com.ua/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=1Wj2ZdwAAAAJ&cstart=20&pagesize=80&citation_for_view=1Wj2ZdwAAAAJ:mVmsd5A6BfQC
3. Xolmo'minov Sh.R (2021) "Mehnat bozori iqtisodiyoti" darslik. – T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021 – 160 b. <file:///C:/Users/Admin/Downloads/4295-%D0%A2%D0%B5%D0%BA%D1%81%D1%82%20%D1%81%D1%82%D0%B0%D1%82%D1%8C%D0%B8-10704-1-10-20220205.pdf>
4. Abulqosimov H.P., Ashurova M.X. (2014) "Ishchi kuchi sifati va raqobatbardoshligini oshirish yo'llari", *Iqtisod va moliya jurnali*, <https://cyberleninka.ru/article/n/ishchi-kuchi-sifati-va-ra-obatbardoshligini-oshirish-y-llari/viewer>
5. Abdurahmonova G.K (2020) "Mehnat iqtisodiyoti" o'quv qo'llanma. – T.: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 138 b. https://scholar.google.com.ua/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=vXMKwFwAAAAJ&cstart=20&pagesize=80&citation_for_view=vXMKwFwAAAAJ:2P1L_qKh6hAC
6. Xalqaro Mehnat Tashkiloti (ILO), 2017, "Ishchi kuchi hajmini aniqlash va bashoratlash: 1990-2030 ", metodologik izoh.
7. Emerson, J. (2011). "Unemployment and labor force participation in the United States", *Economics Letters*, 111(3), 203-206. doi:10.1016/j.econlet.2011.02.022
8. Buhari Doğan, (2017) "Female Labor Force Participation Rate and Economic Growth in the Framework of Kuznets Curve: Evidence From Turkey", *Review of Economic and Business Studies* 10(1):33-54, DOI: 10.1515/rebs-2017-0047
9. Katrina Kosec, Jie Song, Hongdi Zhao & Brian Holtemeyer (2022) *The Gendered Impacts of Income Fluctuations on Household Departure, Labor Supply, and Human Capital Decisions: Evidence from Kyrgyzstan*, *Feminist Economics*, DOI:10.1080/13545701.2022.2101680
10. www.worldbank.org
11. www.stat.uz